




1-oktyabr – O'qituvchi
va murabbiylar kuni

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N: 37-38 (67306-07)
2020-yil 28-sentyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor Yurtboshimiz BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zladi. Dunyo tarixida bu ulug' minbardan ilk bor buyuk ajdodlarimiz tilida nutq so'zlanishining o'zi ulkan tarixiy hodisadir. Dunyo hamjamiyati ham bundayin dadil qadamni, o'z yurtiga, tarixiga bo'lgan yuksak hurmat sifatida e'tirof etmoqda.



Poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi rahbari Nilufar Yo'ldosheva o'quvchilari bilan doimiy ijodiy safarlarda bo'lishdan mamnun.

Dillar ardog'idasiz, aziz muallim!

Aziz va muhtaram ustozlar, qadrli o'quvchilar, xabaringiz bor, Yurtboshimiz Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhi munosib taqdirlandi. Ular orasida poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi Lyubov Kashtanova, Sergeli tumanidagi 329-umumta'lim maktabi direktori Umida Aripova, Uchtepa tumanidagi 228-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulnora Mamayusupova, Navoiy shahridagi 11-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi direktori Gulnora Jumaniyozova, Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomli ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab direktori Shohistaxon Nurmatova kabi ustozlarning ham borligi barchamizni quvontiradi. Biz samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan ustozlarimizni yuksak mukofot bilan tabriklab, ularning samimiy dil so'zlarini yozib oldik.



Shohistaxon NURMATOVA, Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomli ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab direktori, «Sog'lom turmush» medali sohibasi:

– Mehnat faoliyatimning asosiy qismini yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga bag'ishladim. Ushbu mukofotni davlatimiz, xalqimiz tomonidan kamtarona mehnatlarim evaziga ko'rsatilgan yuksak e'tirof deb bilaman. Bu mukofot kelajakdagi ish faoliyatimda yangidan yangi maralarni zabt etishimda, ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda va ijodkor yoshlarga ma'naviy qanot bo'lishda menga cheksiz kuch beradi, istiqboldagi rejalarimda zimmamga mas'uliyat yuklaydi. Kelajak egalarini buyuk ajdodlarimizga munosib voris qilib tarbiyalash, ularni chin ma'noda baxtli qilish biz ustoz-muallimlarning zimmamizdadir.

O'tgan yili ijod maktabi o'quvchilarining eng sara she'rlaridan jamlangan «Umid g'unchalari» nomli ilk she'riy to'plam chop etildi. Bu yil O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil qilingan «Birinchi kitobim» loyihasi doirasida 11-sinf o'quvchisi Iroda Orifjonovaning «Orzularim», Himoyatxon Normatovaning «Yangi satrlar» nomli ilk she'riy to'plamlari minglab nusxada bosmadan chiqdi.

Bugungi kunda ijod maktabida faoliyat olib borayotgan bir qator pedagog xodimlar, xususan, Gulbahor Bektosheva, Shahnoza Azimjonova, Dilfuza O'rmonova, Shahodat O'sarova, Dilshoda Nishonova, Shahnoza Qodirova kabi ustozlar ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fani o'qituvchisi Ilhomjon Usmonovning o'nlab ilmiy maqolalari chet el nashrlarida chop etilgan.

Yurtboshimiz ushbu ijod maktabiga qilgan tashrifi chog'ida yosh qalamkashlarga: «Siz bizning, yurtimiz kelajagining oltin xazinalarisiz», deya ishonch bildirdilar. Ishontirib aytamanki, biz ustozlar yoshlarimizni Yurtboshimiz bergan ta'rifga munosib avlod bo'lib kamol topishi uchun bor kuch va salohiyatimizni sarflaymiz. Buning uchun esa ta'lim muassasamizda barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Qadri baland ustozlarimizga kelajagimiz vorislari – yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdek savobli, sharafli kasblarida muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Umida ARIPOVA, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 329-umumta'lim maktabi direktori, «Shuhrat» medali sohibasi:

– Maktabimizga joriy yilning 29-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashrif buyurdilar. Tashrif davomida keng va yorug' kasb-hunarga yo'naltirish xonalari, fizika, kimyo va biologiya, laboratoriya xonalari bilan tanishib chiqdilar. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida shahar «Barkamol avlod»



maktabi bilan hamkorlik tashkil etilgan to'garaklarni ko'zdan kechirdilar. Yog'och o'ymakorligi, robototexnika, milliy libos dizaynerlik va rassomlik, shaxmat-shashka to'garagi, bichish-tikish va karving to'garagi, musiqa to'garagi xonasini ko'zdan kechirdilar. Sport zali hamda maktab faollar zali jihozlanishi haqida iliq fikrlarni bildirdilar. Maktab oshxonasida yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan tanishdilar.

Bunday sharoitlarda ishlash bizning ko'p yillik orzumiz bo'lgan.

Sergeli tumanida qad ko'targan zamonaviy uslubdagi 329–330-umumta'lim maktablari tumandagi yosh oilalarning farzandlarini o'z bag'riga oldi. Maktabning tashqi ko'rinishi ham juda chiroyli. Uzoqdan qarasangiz, bu chiroyli maktab darrov e'tiboringizni tortadi. O'ylaymizki, o'quvchilarimiz bunday sharoitlarda a'lo baholarga o'qib, maktabimiz dovru'g'ini jahonga olib chiqishadi.

Aziz mehridaryo, qalbi quyosh, jonkuyar ustozlar! Jonajon mamlakatimizda biz ustozlar va sevimli o'quvchilar uchun yaratilgan ajoyib sharoitlardan juda ham xursandmiz.

Davlatimiz rahbari tomonidan ustozlarga alohida e'tibor qaratilyapti, bu biz ustozlar uchun sharaf. Shu kasb egasi bo'lganimizdan faxrlanamiz. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, har bir o'quvchini o'z farzandlarimizdek ko'rishimiz kerak. Shu bilan bir qatorda, boshqa davlatlardan farqliroq yurtimizda nishonlanadigan 1-oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni bilan siz aziz ustozlarni tabriklayman. Bu mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli kasbingizda sizlarga va siz orqali barcha yaqinlaringizga sihat-salomatlik, omad, xotirjamlik, O'zbekiston yosh avlodini Vatanga sadoqat, yurtga muhabbat ruhida tarbiyalab, ilm-fan asoslarini o'rgatishingizda sizlarga kuch-quvvat tilayman.

Nodira NAZAROVA yozib oldi

To'g'ri, ustozlar mil-lat bolasini tarbiyalaydi, ularni Vatan koriga yaraydigan qilib o'stiradi. Men mana shunday ustozlar oldida hamisha ta'zimdaman. Gohida shunday voqealar ham bo'ladiki, biroz ranjiysan kishi. Biz o'qigan paytlarda har hafta turli fanlar kesimida viktorinalar o'tkazilardi. O'qituvchilarning o'z fanini zo'r mahorat bilan o'qitishi, musobaqalar uyushtirishi bizni tinimsiz o'qib-izlanishga chorlardir. Balki shuning uchun ham o'qituvchilik kasbiga mehr qo'ygandirman.

«Tong yulduzi» gazetasida «Bir kuni darsda» rukni ostida berib borilayotgan maqolalarni o'qib, xotiralarimni varaqlab, o'zim o'qigan maktab, sinfimiz quchog'iga g'oyibona «sayohat» qildim.

ko'kka ko'tarardi. Savollar oqimidan boshi aylanib, javob topolmay turgan o'quvchilar xayolini jamlaguncha o'rnimdan dast turib, savollarga javob beraverdim. Sinfidoshlarimning, ha, bo'laqol, tur, javob ber, degan so'zlarini eshitib-eshitmay savollarga javob beraverdim. Esimda, oxirgi savol sayyoralar to'g'risida bo'ldi. Sayyoralariga oid mavzuni juda yaxshi ko'rardim. Sayyoralar haqidagi mavzuni o'qisam, qandaydir ilohiy kuch sezardim o'zimda.



Bir kuni astronomiya fanidan viktorina e'lon qilindi. Olti soat o'qiganimizdan so'ng to'rtta 11-sinf o'quvchilari o'rtasida bahs boshlandi. Direktorimiz salobat bilan kirib keldilar-da, 4-5 nafar o'quvchiga ishora qilib, qani, kazo-kazolarning bolalaridan kim birinchi o'rinni olarkin, dedilar va chiqib ketdilar. Men qattiq ranjidim va: «Hozir shunday javob beraman, direktorning o'zi kelib tabriklaydi», dedim. U paytlarda viktorinalarda 1-o'rinni qo'lga kiritish juda qiyin edi, chunki o'quvchilarning asosiy qismi astoydil o'qir, bir-biridan o'zishga harakat qilardi. Bilmadim, tirishqoqligimdanmi yoki direktorning gapidan ranjibmi, albatta, birinchi o'rinni olishim kerak, deb bahsga kirishdim.

Rahmatli dadam oddiy ishchi edilar, lekin biz farzandlarning istiqboli uchun hech narsani ayamasdilar. Ayniqsa, menga e'tiborlari o'zgacha edi.

Shunday qilib, viktorina boshlandi. 11-sinflar orasida sinf sha'ni uchun kurash, degan tushuncha bor edi. Biror bir sinf o'quvchisi g'olib bo'lsa bormi, maktabda bayram bo'lardi, qiy-chuv qilib hamma sinf «himoyachi»sini

Xursandligimdan birinchi bo'lib javob berdim. Ustozlarning kimda qo'shimcha fikr bor, marhamat, degani ko'z o'ngimdan ketmaydi. Hamma jim, boshqa biror o'quvchi qo'shimcha qila

Bir kuni darsda...

olmadi. Shunday qilib viktorina tugadi. Hay'at a'zolari birgalikda allanimalarni pichirlashdi. Shu payt eshikdan direktorimiz kirib keldi. U kishiga hurmat ko'rsatib, hay'at a'zolari yoniga o'tqazishdi. Direktorimiz ustozlardan, qani, kim viktorina g'olibi bo'ldi, deb so'radi. Sinfga jimlik cho'kdi. Qaysidir o'qituvchi «bugungi viktorina g'olibi...», keyin esa tabriklar, qarsaklar, olqishlar, direktorimiz menga bir qarab qo'ydi-da, miyig'ida kulib, sinfdan chiqib ketdi. Chunki viktorina

USTOZ O'GITI

Katta-kichik demay, uyalmay, Sen bironi qilding kalaka. Biror ishni udda qilolmay, O'zingda yo'q axir baraka.

Arzimagan narsadan ranjib, Ko'ngillarni qoldirayapsan. Hayotingni bo'yabmi, bejab, Kibr torin avjidan mastsan.

Qaytar dunyo, jazolar xato, Bugun imkon berar kuzat, deb. Yo'l ko'rsatib, o'rgatib hatto, Buzgan joying o'zing tuzat, deb.

Ketib borar indamay fursat, Bir-bir olib ketar indamay. Sen o'zingni ayni payt ko'rsat, Yaxshi amallaring haydamay!



Umida ABDUAZIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

SABOG'IN OLIB SHAYMIZ

Ustoz ulug' otangdek, tik boqmagin ko'ziga, Hurmatin qil odamdek, amal qilib so'ziga.

Kechamiz o'tdi qandek, bugun shod yashayapmiz, Ertamiz qayda, qanday sabog'in olib shaymiz.

Chunki naqddir ertasi, ustoz ko'rgan bolaning, Ayondir ta'm, mazasi nonidan zuvolaning.

Har bir bola ertakdek hayratlarga chulg'onsin, Erta ilinjida tek izlanishga uyg'onsin.

Dunyo o'zi imkondir: kecha, bugun ertaga, Kim hokim, kim cho'pondir, azizdir o'z yurtiga.

Ota-ona, mahalla, ustozga bo'lsin qanot, Qobil-u komil bola bilan sermazmun hayot!

g'olibi men edim-da...

Oradan yillar o'tdi, oliygohni bitirib, sevimli maktabim, ustoz-

voqeani eslatdim. Ming xijolat bilan ko'zimga qarab: «Qizim, men unaqa demagandim, bo'lishi mumkin emas», deb qizarib qoldilar. Mayli, men sizdan xafa emasman, lekin atrofga boqing, siz aytgan o'sha odamlarning birortasi yo'q, lekin men borman, dedim kulib. Ha, yana bir holat meni juda quvontirdi. Men o'qigan maktab 3 kilometr uzoqlikda edi, lekin ko'chamiz boshida ham mo'jazgina maktab qad rostlagandi. O'sha maktab direktori meni yo'qlagani va o'z maktabiga ishga taklif qilmoqchi ekanligini eshitib, direktorimizning fig'oni falakka chiqqani va keskin, yo'q, deb javob berganini eshitib, juda xursand bo'ldim. Chunki men o'z maqsadimga erishgandim. Balki o'smirlikda qilgan niyatim amalga oshgandanmi yoki farishtalarning yaxshi gapga omin deyishimi, bilmadim. Ha, ba'zan noo'rin aytilgan gap ham hayotda o'z o'ringni topishda yordam berar ekan. Men direktorimiz va ustozlarimdan bir umrga minnatdorman.

larim bag'riga o'qituvchi bo'lib qaytdim. Menga yana o'sha qadrdon, samimiy inson peshvoz chiqdi. Kim, deysizmi, direktorimiz-da. Iliq kutib oldilar, xizmat xonalarga kirar ekanman, yuragimdagi o'sha «qasos o'ti» o'chmaganini his qildim. Ya'ni, yaxshi ma'nodagi «qasos», hali men maktabga, albatta, qaytaman, siz o'sha maqtagan kazo-kazolarning bolasi kelolmagan tabarruk maskanga o'qituvchi bo'lib kelaman, deganim yodimga tushdi va ustoz, esingizdami, deb bo'lib o'tgan

Muxiba RAJABOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ABADIYATGA YUZLANGAN ASAR YOXUD «O'TKAN KUNLAR»NI O'QIB...

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Asar bir o'qiganda har qanday kitobxonning ko'nglidan chuqur joy egallaydi.

Asarni mutolaa qilganda, kishi o'zgacha bir olamga sayr etadi. Voqealar rivoji davomida kishi goh kulsa, ba'zan ich-ichidan yig'laydi. Asar kitobxonni chuqur o'yga toldiradi. «O'tkan kunlar»ni o'qishga kirishgan har bir kitobsevar uni o'qib tugatgunga qadar roman qahramonlari bilan birga yashaydi.



Otabek va Kumushning o'tli hayoti o'quvchini o'yga toldiradi... Mana, qariyb bir asr o'tgan bo'lsa ham hali-hanuz bu asar qadri va barhayot, hanuzgacha kutubxonalarda o'z o'quvchilariga ega o'zbek olamining beqiyosligini cho'qqiga chiqargan asardir.

«O'tkan kunlar» asari turli xil yosh vakili bo'lgan kitobxonlarda turlicha taassurot qoldiradi. Masalan, yoshroq kitobxon uni ishq-muhabbat asari deb bilsa, yoshi kattaroq kitobxon esa nafaqat sevgi, balki oilaga sadoqat va undagi munosabatlar, ezgulik, mehr-oqibat bilan bir qatorda turli xil illatlar va qabihliklarning fojialari yoritilganligi haqida so'zlaydi. Men ham bu asarni o'qiganimda, juda ko'p taassurotlar oldim. Har taraflama havas qilariq, og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam yuzlik bek yigit Otabek va jon olg'uvchi qora ko'zlik, hayoli Kumushning bir-biriga bo'lgan betakror muhabbati, Kumushning yoriga ishonib kundoshga ko'ngani, Otabekni o'z o'g'liday yaxshi ko'ruvchi Hasanali, Mirzakarim qutidor va yuzidan muloyimlik, eriga itoatkorlik ma'nolari tomib turadigan Oftoboyim, kelini Kumushni «Oyim» deb erkalovchi Yusufbek Hoji va O'zbek oyimlar bilan tanishib, o'zim ham bu voqealarga tushib qolganiday bo'ldim. Ayniqsa, Kumushdan o'zbekona ibo-hayoni o'rgandim. Sizlarga ham Abdulla Qodiriy bobomizning «O'tkan kunlar» romanini o'qishni tavsiya qilaman. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek:

«O'zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarini bir emas, bir necha marta o'qigan bo'ladi. Nega desangiz, bu asarni o'qigan inson oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo'lsa, Vatanga xiyonat qilmaydi».

Xonzoda OLIMJONOVA,
Abdulla Qodiriy
nomidagi ijod
maktabining
8-sinf o'quvchisi



*Sizdan boshlanadi asli tafakkur,
Ey aziz ustoz, sizga tashakkur!*

Nilufar YO'LDOSHEVA, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori:
– Assalomu alaykum, sharafli va zahmatli kasb egalari bo'lgan aziz ustozlar! Sizlarni 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etaman!

Siz borsizki, olam munavvar, hayotimiz mazmunli, kelajagimiz porloq! Farzandlarimizning kamol topishi, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun bor mahorati, bilim, ko'nikma va tajribasini baxsh etib kelayotgan qalbi qaynoq ustozlarimiz, Sizlarga chin yurakdan minnatdorchilik bildiramiz.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, maktabdagi ta'lim-tarbiyani o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa Siz, aziz o'qituvchilarsiz.

Ta'limsiz taraqqiyot bir qadam ham ildamlay olmaydi. Ta'lim-tarbiya har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham belgilaydigan eng muhim va ustuvor masaladir. Bugungi kunda mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Bunday ezgu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, o'quvchilarimiz ham puxta bilim olib, o'z iqtidori, salohiyatini xalqaro miqyosda namoyon etib kelmoqdalar. O'g'il-qizlarimiz Siz qadri ustozlarning qilgan mehnatingiz, chekkan zahmatlarinigizni oqlashiga, maktabimizdan buyuk ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sinolar, Beruniylar, Navoiylar, Al-Xorazmiylar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Daryodil ustoz va murabbiylar, kasb bayramingiz muborak bo'lsin!

MAKTABIMIZ O'QUVCHILARGA O'Z ESHIKLARINI OCHDI

Pandemiya butun dunyoda insonlar turmush tarziga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Ma'lumimgizkim, o'tgan o'quv yili onlayn tarzda yakunlandi. Ta'til davomida ham o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida o'qituvchilar tomonidan turli yo'nalishda onlayn to'garaklar tashkil qilinib, ko'pgina yutuqlarga erishildi.

Karantin talablari yumshatilib, maktablarni bosqichma-bosqich ochilishiga ruxsat berilgach, sani-

tegishli qarorlariga muvofiq pandemiya sharoitida bizning 324-umumta'lim maktabi 14-sentyabrdan

deputatlari, hokimliklar, vazirliklar va XTB mudirlari boshchiligida, tumanning barcha maktab rahbarlari, xo'jalik mudirlari va hamshiralari ishtirokida o'tkazildi. Har bir sinf xonalari gigiyena talablariga javob berishi ta'minlandi, uch yo'lakdan o'quvchilarning tana haroratlari o'lchanib, qo'llari zararsizlantirilib, masofani saqlagan tarzda qabul qilinmoqda. O'quvchilarning an'anaviy yoki onlayn o'qishlari ota-onalarining ixtiyorida bo'lib, har ikki yo'nalishda o'qituvchi va o'quvchilar darslarda faol ishtirok etmoqdalar.



tariya-epidemiologiya osoyishtalik markazlari, tibbiyot birlashmalarining xulosalari, o'qituvchilarning koronavirus ko'rsatgichlari hamda Xalq deputatlari tuman Kengashlarining

javob bergani, o'quv yiliga to'liq tayyorligi munosabati bilan Shayxontohur tumani bo'yicha o'quv-seminari ham aynan bizning maktabda tashkil etildi. O'quv-seminar Xalq

Zilola INOG'OMOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 324-umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

DO'ST TANLASHDA ADASHMAGANMAN

Bugungi kunda har bir o'quvchining eng katta maqsadlaridan biri bu shubhasiz, maktabni oltin medal bilan tamomlashdir. Albatta, o'qishdagi muvaffaqiyatlari va namunali xulqi uchun ushbu medalga sazovor bo'lish o'quvchidan ulkan mas'uliyat talab etadi.

Joriy yilda umumta'lim maktablarini 451 377 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lsa, ularning 4682 nafari oltin medalga munosib topildi. Marg'ilon shahridagi 6-umumta'lim maktabining 11-sinf bitiruvchisi Muhammadyusuf Qurbonov ana shunday e'tirofqa sazovor bo'lib, ustozlari, ota-onasi yuzini yorug' qilgan o'quvchilardan biridir.



Muhammadyusuf quyi sinflardan oq intiluvchanligi, tirishqoqligi bilan sinfdoshlari orasida peshqadamlar safidan o'rin oldi. Nemis tilini o'rganishga ham ishtiyoqi kuchli bo'lgan Muhammadyusuf 6-sinfdan buyon ushbu fan bo'yicha «Bilimlar bellashuvi» hamda fan olimpiadalarida muntazam qatnashib, g'olib va sovrindorlar safida bo'lib kelgan. Jumladan, 2016-yilda nemis tili fanidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning

Respublika bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2018-yilda nemis tilidan B1 daraja, 2019-yilning oktyabr oyida esa B2 daraja sertifikatiga ega bo'lgan. 10 ga yaqin ilmiy maqolalari xorijiy jurnallarda chop etilgan. Bundan tashqari, 2018-yil oktyabr oyida Germaniya elchixonasi tomonidan o'tkazilgan «Lesewettbewerb» tanlovida ham g'olib bo'lgan.

Agar mendan «Sen bu hayotda nimada adashmagansan?» deb so'rashganida, shubhasiz, «Do'st tanlashda», degan bo'lar edim. Sababi, Muhammadyusuf haqiqiy do'st, sirdosh va maslahatchi. U hech qachon hech kimdan yordamini ayamaydi, hatto o'zi tanimaydigan insonlardan ham yordam qo'lini ayamaydi. Do'stimdagi insoniylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarini qadrlayman.



Har doim u bilan suhbatlashganimizda, «Biz hali juda ko'p yaxshi ishlarni amalga oshiramiz», deydi. Do'stimning gapida jon bor, joriy yilda ikkimiz ham o'qishdagi muvaffaqiyatlarimiz va namunali xulqimiz uchun oltin medalga sazovor bo'lganligimiz buning yorqin misolidir.

Omad Senga, Muhammadyusuf! Talabalik muborak bo'lsin!

Dilmurod DILMURODOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich talabasi



Ubaydulla ORIPOV, Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi direktori:

SO'ZLARI HIKMATGA BOY

Murabbiy, ustoz! Bu muqaddas so'zni tilga olganimizda, jonkuyar insonlarning samimiy chehrasi ko'z oldimizda gavdalanadi. U ulug' alloma bobolarimiz aytganidek, sham monand - o'zi yonib, o'zgalar yo'lini yoritadi. U bugun barpo etilayotgan imoratning mustahkam poydevorini, porloq kelajakimizning tamal toshini qo'yguvchi inson. Uning bosib o'tgan hayot yo'li ibratga, so'zlari hikmatga boy.

Shukurkim, bugun ta'limga e'tibor avvalgi yillardan butkul farq qiladi. Zero, farzandlarimizning ertaga qanotlari metindek mustahkam, parvozlari yuksak bo'lishi, ularning bugun qanday tarbiya topayotganlari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiyaga xalqimiz eng muhim masala sifatida e'tibor qaratadi.


Ta'lim-tarbiyadagi islohotlar jarayoni markazida muhim bir shaxs bor - muallim. Bu yo'nalishda samaradorlikka erishishda uning ilmi, mahorati, tajribasi alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan o'qituvchi shaxsini ulug'lash, mehnatini qadrlash va munosib taqdirlashga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ustoz, murabbiylar bu e'zoz-u ehtiromni chin dildan his qilib keladilar. Bunga javoban ular fidoyilik namunalari ko'rsatib kelmoqdalar. Bugungi murakkab pandemiya sharoitida ham har qancha qiyin bo'lmasin, jonkuyar ustoz-murabbiylarning mehnatlari tahsinga sazovor.

Mard maydonda sinaladi, degan ibora bor dono xalqimizda. Mehnat, mashaqqatlar maydonida sinalayotgan jonkuyar muallimlarimizni shu kunning qahramonlari, desak arziydi. Ular qarshisida har qancha ta'zim bajo keltirsak oz.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha o'qituvchi va murabbiylarni kasb bayramimiz bilan muborakbod etaman! Ularga metindek mustahkam sog'lik tilayman!

PREPOSITIONS



WE HAVE SOME EXAMPLES FOR PREPOSITIONS

- I have dinner at 7 p.m. (7 p.m.- precise time, use AT)
- Jackie goes to sleep at 11 p.m. (precise time, use AT)
For longer periods of time, we use ON.
- I'll see you on Friday. (Friday = day, so we use ON)
- I was born on the 14th of December. (date = day, so use ON)
For very long periods of time, such as weeks, years, months, centuries etc, we use IN.
- I like films made in the 1940's. (decade = long period, use IN)
- She likes going to the seaside in August (month = long period, use IN).

HERE ARE SOME MORE EXAMPLES FOR YOU

IN 1960 monsoon, october, the night

ON Monday, Halloween, 1st of May

AT 5 O'clock, sunrise, the moment


- at for a PRECISE TIME
- in for MONTHS, YEARS, CENTURIES and LONG PERIODS
- on for DAYS and DATES

EXAMPLES FOR PREPOSITIONS (AT, IN, ON)

Expression	Example
at night	The stars shine at night.
at the weekend	I don't usually work at the weekend.
at Christmas/Easter	I stay with my family at Christmas.
at the same time	We finished the test at the same time.
at present	He's not home at present. Try later.

in	On
in the morning	on Tuesday morning
in the mornings	on Saturday mornings
in the afternoon(s)	on Sunday afternoons
in the evening(s)	on Monday evening

PREPOSITIONS IN DIAGRAM FORM



PREPOSITIONS OF PLACE - EXERCISE 1

Fill in at, on or in

- The headquarters of the United Nations is ___ New York.
- In the most countries people drive ___ the right.
- I usually buy a newspaper ___ my way to work.
- Last year we had a lovely skiing holiday ___ the Swiss Alps.
- San Francisco is ___ the west coast of the United States.
- She spends most of the day sitting ___ the window.
- The report about the accident was ___ the front page of the newspaper.
- In the theatre we had seats ___ the front row.
- Write the name and address ___ the front page of the envelope.
- It's dangerous to play football ___ the streets.
- I'll meet you ___ the corner of the street at 10.
- We got stuck in a traffic jam ___ the way to the airport.
- Look at the horses ___ that field.
- ___ the end of the street is a path to our house.
- Do you want sugar ___ your coffee?

PREPOSITIONS OF PLACE - EXERCISE 2

Now decide which preposition needs to be used:

- | | |
|--|--|
| 1. I always keep some extra money ___ my bag in case of emergencies.
at
in
on | 6. I read about it ___ the newspaper.
on
in
at |
| 2. I'll read it tonight ___ home.
at
in
on | 7. He went for a swim ___ the river.
on
at
in |
| 3. Do you live ___ a house or an apartment?
at
in
on | 8. The dog's sleeping ___ the carpet.
at
on
in |
| 4. Did you learn English ___ Malta?
at
on
in | 9. The information is ___ the top of the page.
at
in
on |
| 5. She grew up ___ a farm.
in
at
on | 10. Were you ___ the party too?
on
at
in |


Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

PREPOSITIONS OF PLACE - EXERCISE 3

Choose at, in, on to complete the sentences.

- They are sitting ___ the table.
- I want to spend a year ___ Barcelona.
- The milk isn't ___ the fridge. Where is it?
- Is Peter's office ___ the first or the second floor?
- Why are all these clothes ___ the bed?
- Please, put the clothes ___ the wardrobe.
- Are you ___ home?
- I don't want to see her ___ the party tonight.
- I like the sea, but I prefer swimming ___ a swimming pool.
- Please, call me when you are ___ the bus.

PUZZLE



SUITABLE WORDS

- Fine
- Crossroads
- Roundabout
- Overtake
- Accelerate
- Clutch
- Tailblack
- Petrol
- Brake
- Drive
- Signpost
- Speed
- Lane
- Headlight

SARGUZASHTLAR DAVOM ETADI



– Xayking uyushtirish ajoyib taklif bo'ldi-da!

– Xayking o'zi nima degani?

– Olaf, Xayking – sayohatning bir turi. Unda chodirlarda tunaladi. Anna, tayyormisan?



– Shunday desa ham bo'ladi.

– Avval mana bu olovni o'chirish kerak.



– Ruxsat bersang, yordamlashib yuboraman. Ana, bo'ldi.

1



– Albatta, yo'l xaltalarini unutib bo'lmaydi. Axir ularda zarur asboblari bor-ku!



– Menimcha, yana ozgina yursak daraning boshidan chiqamiz.



– Mana, yetib ham keldik.



– Seningcha, nima uchun uni aynan shunday nomlashgan?

– Bilmadim. Bu haqda kitoblarda yozilmagan edi.

– Bu qanday tovush bo'ldi? Menimcha, Sven bizga qo'shilmog'chi.



– Yoki Svenlar galasi.

– Kelayotgan tovushlar Svenni deb o'ylamayman.

– Taxminimcha bu...

3

– Qiziq, men qirolligimizdagi barcha mashhur joylarni, bilaman, deb o'ylardim. Lekin bug'ular darasi haqida eshitmagan ekanman.



– Men bu haqda kutubxonamizdagi kitoblarning birida o'qib qoldim.



– Kitobda yozilishicha darada qadim zamonlardan beri mashhur. Aytilishicha, darani topish mushkul emas.



– Qayiq va chodirni qoldirsak ham bo'ladi. Menimcha, shu yo'l to'g'ri daraga eltadi.

– Menimcha, yo'l xaltalarimizni olganimiz ma'qul.

2




– QOR KO'CHKISI...





4



5



7



6



DAVOMI BOR

8

MAHALLA – HAM ONA, HAM OTA

Biz yoshlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib ulg'ayishimizda zamonaviy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, mafkuraviy yot g'oyalardan asrashda mahallaning o'rni beqiyos deb o'ylayman.



Bunga misol qilib respublikamiz miqyosida o'quvchi-yoshlar o'rtasida «Qadriyatlar beshigisan, aziz mahallam!» shiori ostida o'tkazib kelinayotgan turli tadbirlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari hamda bir qator tanlovlarni keltirib o'tish mumkin.

Haqiqatan ham, mahalla deb atalmish katta oilada milliy, umuminsoniy fazilatlar mujassam: yoshi ulug' keksalar ijtimoiy himoya qilindi, mahallaning har bir fuqarosi uchun ma'naviy ko'mak, boquvchisini yo'qotgan yoki kam ta'minlangan

oilalar uchun moddiy yordam beriladi. Hasharlarda, to'y-ma'rahalarda ahillik, hamjihatlik bilan maslahatlashgan holda ish ko'riladi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ham mahalla va hamkor tashkilot, muassasalar birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Ko'plab mahallalarda milliy urf-odatlarimizga asoslangan holda kashtachilik, do'ppido'zlik, zardo'zlik, kulolchilik va o'ymakorlik kabi hunar markazlari ham tashkil etilyapti.

Mana shunday obod va ozod mamlakatda, barcha insoniy fazilatlar ulug'lanadigan mahallalarda yashayotgan har bir yosh jamiyatga foydasi tegadigan, yurt farovonligi haqida qayg'uradigan, jismonan va ma'nan yetuk inson bo'lib voyaga yetishiga ishonaman.

Kamolaxon QODIROVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
32-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Ustoz... Mening murg'ak qalbimda Vatanim, ona xalqim, yurtimga mehr-u muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ularni uyg'ota olgan, yuragimga ezgulik urug'ini sochgan Hazrati INSON! Ilk bora «Ona» so'zini yozganimda, mehr bilan boshimni silagan, umrim davomida erishgan yutuqlarim sababchisi qadrili ustozim!

QALBLARGA NUR BAG'ISHLAB...

Biror lahza yo'qki, siz haqingizda o'ylamagan bo'lsam.

Qalbinga quvnoq bolalik xotiralari jo qilgan, hayot atalmish katta

«doshqozon»da qaynab, uning issig'i-yu sovug'ini sabr, bardosh ila yengib o'tishimga sababchi – Ustozim.

To'ychi bobo, desa, qishloqda 7 yoshdan 70 yoshgacha tanigan, 35 yillik umrini o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan jonkuyar muallim. Ustozning barcha shogirdlari hayotda o'z o'rniga ega yetuk, malakali mutaxassislari bo'lib yetishdi.

Boyovut tumanida joylashgan 13-umumta'lim maktabidagi Jamol O'rmonov, Kimyo Qo'chqorova, Galina Petrovna, Fanusa Ginovna, Mamlakat Odilova, Zokir Rustamov, Xo'janazar Shoimov, Valentina Petrovna kabi aziz va mehribon ustozlarim oldida hamisha ta'zim-daman.

Sayyora ERNAZAROVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut
tumanidagi BABM
«Yosh jurnalist va notiq»
to'garagi rahbari



**Tog'lar tog' bo'lmaydi, savlat bo'lmasa,
Qushlar ucholmaydi, qanot bo'lmasa.
Inson yurolmaydi, da'vat bo'lmasa,
Buloq bo'lsang, ko'zing ochgan ustozdir!**

Darhaqiqat, olim-u yozuvchimi, muhandis-u quruvchimi, shifokor-u san'atkormi, kim bilan suhbatlashmang, barchasi o'z ustozlari haqida faxr bilan gapirishadi. Mening ham o'qituvchilik kasbini egallashimga sababchi bo'lgan mehridaryo ustozlarim bor. Ulardan biri menga hayot baxsh etgan, uzoq yillar ta'lim sohasida tinimsiz mehnat qilgan, hozirda qarilik gashtini surayotgan onajonim Hafiza Odilova bo'lsalar, yana biri meni adabiyot sirlaridan, ona tilimizning betakror go'zalligidan bahramand qilgan maktabdagi ona tili fani o'qituvchimi, bugungi kunda ko'plab talabalarning sevimli ustoziga aylangan fidoyi inson Yashnarbek Avlakulovdir.

O'quvchilik paytlarimni yaxshi xotirlayman. Ustozim Yashnarbek Avlakulov har bir bola qalbiga yo'l topa oladigan mahoratli pedagogdirlar. Ularning bir gaplari hanuz yodimda: «Inson bolasi qog'oz emaski, g'ijimlab, qutiga

USTOZGA TA'ZIM

tashlasang». Inson qalbi bilan hech qachon hazillashib bo'lmasligini bot-bot takrorlardilar. Har birimizni hurmat qilgan holda «siz»lab



murojaat qilardilar. Ustozim bizda kitob muto-laasiga havas uyg'otganlar. Har haftada bitta sinfdan tashqari badiiy asar o'qib, tahlilini o'tkazardik. Adabiyot darslarida, ayniqsa, badiiy asar matnini ifodali o'qishga e'tibor qaratganlar. O'zlari asarni ifodali o'qib berganlarida, hammamiz mehrlu yuzlariga tikilgan cha adabiyot olamiga «sho'ng'ib» ketardik. Sahna asarlaridagi har bir qahramon xususiyatini ustozning ovoz pardalari, ohangi orqali bilib olardik. «Ifodali o'qish – badiiy asarning yarim

tahlili», derdilar ustoz. «Ifodali o'qish orqali o'quvchi asarning badiiy qiymatini anglay oladi», deya ta'kidlardilar. Kechagidek esimda, 4-sinfni tamomlab 5-sinfga qadam qo'ygan kezlirim badiiy asarni galma-galdan o'qita boshlaganlarida, biz: «O'zingiz chiroyli o'qib beraqoling», deb yalindardik. Shunda ustoz: «Asar matni ustida ishlash, mustaqil o'qish orqali yozuvchining yuksak mahoratini bilish mumkin», deya o'qitishda davom etardilar.

Ustoz bilan bizning oramizda cheksiz hurmat va do'stona yaqinlik va albatta, talabchanlik ham bor edi.

Men ustozimning bu kabi uslublarini hozir o'z faoliyatimda qo'llab kelyapman. Shunday oliyanob, mehridaryo ustozning shogirdi bo'lganimdan, qolaversa, o'qituvchilar sulolasi-ning davomchisi ekanligimdan faxrlanaman.

**Nega she'r aytmayin yurakdan yonib,
Nega ta'zim etmayin sizga bu mahal.
Nega xizmatigiz qilmay quvonib,
Ey aziz muallim, ustoz avval!**

**Dilda ziyo borki, umr sarafroz,
Mayli, u hamisha baxt bilan bo'lsin.
Ey aziz muallim, ey aziz ustoz,
Buyuk bayramingiz muborak bo'lsin!**

Nilufar IBRAGIMOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
81-umumta'lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

FAQAT QIZLAR O'QISIN!

QANDAY KIYINISH HAR KIMNING SHAXSIY ISHI(MI)?

O'qituvchiman. Kasbim taqozosi bilanmi, yoshlarni, ayniqsa, qizlarni ko'p kuzataman, ular bilan hamsuhbat bo'laman. Bilimga chanqoq, intiluvchan, yangilanishlardan cho'chimaydigan, fikrli yoshlar bilan suhbatlashsam, ko'nglim tog' barobar yuksaladi.

Ayniqsa, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analari-mizni qadrlaydigan, mentalitetimizga mos ravishda milliy liboslarimizni kiyayotgan qizlarimizni ko'rganimda, ko'zim quvnaydi. O'zligimizga qaytayotganimiz, milliy g'ururimiz farzandlarimiz qalbiga ham ko'chayotganidan xursand bo'laman. Shuning barobarida oltinga teng yoshlik davrini behuda o'tkazayotgan ayrim maqsadsiz yoshlarni ko'rib, «Essiz yoshlik!» degim keladi. Ayniqsa, ularning «rusumbop» kiyimlari, jamoat joylarida o'zini tutishi, muomalasidan tashvishga tushaman. Chunki milliylikimiz, qadim qadriyatlarimizga putur yetkazadigan holatlarga loqayd qarab turolmayman.

Yaqinda yoshlar davrasida jamoat joylarida kiyinish madaniyatiga oid davra suhbatlari o'tkazdik. Shunda qizlarimizdan biri:

«Nega hadeb bizga, kalta-kulta, ochiq-sochiq kiyinmanglar, sochingizni yoymanglar, deya tanbeh beraverasizlar? Axir qanday

kiyinish har kimning shaxsiy ishi-ku. Yoshligimizda zamonaga mos rusumbop kiyinmasak, qachon kiyinamiz, qariganimizdami? Zamonaviylik bu axir madaniyat belgisi-ku.

Yoki sizning yoshlik davringizdagidek at-las ko'ylak-lozim kiyib yuraylikmi?», deb qoldi. So'ng, «Bop-ladimmi?» degandek, piqillab kulgan-cha uni qo'llab-quvvatlab o'tirgan dugonalarining qo'lga qo'l tashlab qo'ydi. Davrada g'ala-g'ovur boshlandi: ustozlar, qizlar ularga e'tiroz bildira ketishdi. Yig'ilganlarni tinchlantirib, u qizning savoliga o'z munosabatimni bildirdim:

– Zamonaviylik – bu tarbiyasizlik, hayosizlik degani emas. Tor, ochiq-sochiq, kalta-kulta kiyim kiyish esa hayosizlikdan boshqa narsa emas. Milliy qadriyat, urf-odatlarimizga

Chiroy husni jamolda emas, fazli kamolda.

bepisandlik, hurmatsizlik qilib, ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolgan «zamonaviy yoshlar»-ga ko'r-ko'rona ergashish madaniyat emas, mayda ilatdir. Qolaversa, siz kimsasiz orolda yashayotganingiz yo'q.

Sizning xulq-atvoringiz, o'zga millatlarga xos taqlidan kiyinish uslubingiz atrofingizdagi tengdoshlaringiz, o'smir yoshidagi qizlarimizning ongi, tafakkuri, ruhiyati, tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmasligi kerak. Bir yurt, bir jamiyatda yashayap-mizmi, qanday kiyinish har kimning shaxsiy

ishi bo'lolmaydi...

Tadbirdan qaytar ekanman, qizlarimiz orasida barmoq bilan sanarli bo'lsa-da,



Nodira TUYQULOVA,
O'zMTDP Shayxontohur tuman
Kengashi deputati

Insonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go'zal bo'lishi lozim.

shunday betgachopar, sayoz fikrlaydiganlari borligidan ranjidim.

Bunday illatlarning ildiz otishiga, eng avvalo, ana shunday qizlar tarbiyalanayotgan oiladagi nosog'lom muhit, o'zi ham tarbiyaga muhtoj onalar, qolaversa, bizning ham loqaydligimiz, beparvoligimiz, och qornim – tinch qulog'im qabilida ish tutishimiz sabab bo'layotgani ayni haqiqat. Zero, loqaydlik insoniyatning eng xavfli dushmanidir. Shunday ekan, aziz qizlarjon, siz ham, eng avvalo, o'zingizning, qolaversa, dugonalaringizning yurish-turishi, kiyinishga e'tiborli bo'ling. Qalbingizda milliy g'urur bo'lsin. Yoshlikning o'zi go'zal. Zamonaviylik bilan milliylikimiz uyg'unligidagi liboslar esa yoshlikning ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Shundagina millatimizning asl qiyofasini saqlab qola olamiz.

Ona... So'z bilan ta'rifini shoir-lar ham, ne-ne qalam sohiblari ham she'r-u dostonlarda tugata olmagan zot.

Ona... Farzandining kamoli uchun borlig'ini bag'ishlagan, quyosh nuridek tunganmas mehrlil inson.

Ona... Ko'z yoshlarini ham-madan yashirgan, yig'laganini payqab qolib, sababini so'rashsa, shunchaki ko'zimga chang kirdi, deb tabassum qilgan, yuragidagi dardini hech kimga bildirmagan sabr, matonat sohibasi.

Ona... U aslida kim o'zi? Dil-bandining baxti, kelajagi uchun

YERDAGI FARISHTAM

Inson tug'iladi, tili chiqa boshlaganda aytadigan ilk so'zlari «Anno, anaa, ona».

hayot zarbalariga tik qarash-dan qo'rqmagan munisami? O'zingizga savol bering: «Nega onamning jonkuyarligi, mehri-ga qo'pollik bilan javob beraman? Nega farzandlik burchimni to'kis ado etmayman? Ish yoki o'qish-ga ketayotganimda onamning duosini olib ketmayman?»

Onangizning yoniga boring, kechirim so'rang, Jannat isi kelib

turgan qo'llarini ko'zingizga surting. Nurli yuziga to'yib qarang. Quchoqlang, qo'yib yubormang. Alloh-dan onangizga umr, shodlik, sog'liq so'rang, volidangizni qadrlang, asrang, ardoqlang, duosini oling.

Zero, jannat onalar oyog'i ostidadur, unutmang.



Madina AKBAROVA,
Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi
36-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Otam rahmatlik menga o'rta maktabda fizika-matematika fanlaridan saboq berdi. Tabiiy fanlarning barchasini a'lo baholarga o'qiganman. Fizika fani bo'yicha olimpiadalarga qatnashganman.

Otam mening adabiyotga qiziqishimdagi birinchi ustozimdir. Chunki meni o'z ko'ngil xohishimga, o'zim qiziqadigan adabiyot sohasini tanlashimga mone'lik qilgani yo'q. Ba'zi ota-onalar, albatta, farzandlari o'zlari yurgan yo'llardan aslo og'ishmay yurishlarini istab qolishadi. Otam fizika mashg'ulotlaridan sinfdoshlarimning jinday zerikkanini sezib qolsa, mavzuni formulalardan sekin lirik chekinish tomon burar, o'z ko'ngliga yoqqan she'rlardan o'qir va sinfdoshlarimning kayfiyatini ko'targan holda yana mashg'ulotlarni davom

etardi. Men V. Mayakovskiy, H. Olimjon, Maxtumquli she'rlarini hali o'qish-yozishni bilmagan bir pallamdan otamdan eshitganman. So'z kuchiga, ohangi va ulug'vorligiga hayratlanib qaraganman. Balki badiiy adabiyotga mehr murg'ak tasavvurimga o'sha pallada muhurlangandir. Uyimizda kichik kutubxonamiz bor edi. Asosiy kitoblari fizika-matematikaga oid bo'lgan otamning javonidan badiiy adabiyotga tegishli asarlarni izlab o'qirdim.

Maktab dars mashg'ulotlari mahali otam meni ko'p ham bezovta qilavermasdi. Agar sinfdoshlarim uyga berilgan vazifa muhokamasida qiynalib qolishsagina, u kishi meni o'rnimdan turg'izib: «Qani, sen aytchi», der edi qat'iy ohangda. Ba'zan hayajondan manglayimdan sovuq

ter chiqib ketardi. Shuning uchun, to'g'risi, har qanday fizikaviy qonuniyatlar yoki matematik teoremlarga har doim tayyorlanib kelishga majbur edim. Bolalik tasavvuriga naqshlangan o'sha tushunchalarning ayrimlari hali shu kungacha esimda. Maktabda o'qib yurgan mahali o'sha qoidalarni, geometrik shakllarni, formulalarni yozib yuradigan kichik yondaftarcham bo'lardi. Shu daftarcha yonida keyinchalik adabiyotga doir tushunchalarni yozib boradigan daftarcha paydo bo'ldi. Qizil muqovali o'sha bejirim daftarchani o'zimdan to'rt yosh katta Bahrom akam sovg'a qilgan edi...

Otam respublikaning barcha asosiy adabiy nashrlariga obuna bo'lgan edi. Ularni o'qib yoshim ham, fikrim



Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan yoshlar murabbiyi

ham ulg'aydi...

Hozir universitetda talabalarga ta'lim beraman, badiiy so'z qudratidan so'zlayman. Ta'lim usuli-metodikaning, deylik, yiqilganni tepmaslik, xolislik, odillik, kenglik va tenglik kabi ayrim jihatlarini otamdan o'rganganman.



«TONG YULDUZI»M!

Kulgichlarim ustiga jon ato etgan,
Tun qa'rida bedor o'tgan, kurtak otgan,
Barcha shirin tushlarimni dilga bitgan,
Menga quyosh, misol bo'lgan
«Tong yulduzi»m»!

U quyoshdir, osmonimda nurlar sochgan,
Qalb qo'rimga ohor berib ko'ngil ochgan,
Anduhlarim, hijronlarim dildan qochgan,
Yuzlarimga kulgich bitgan
«Tong yulduzi»m»!

U maqsaddur, olislarda mash'al yongan,
Orzu-umid uchqunlari yal-yal yongan,
Ko'zlarimda kipriklarim asrab olgan,
Quvonchimsan, ko'kada kulgan
«Tong yulduzi»m»!



Abdulloh ABDUHAMIDOV,
Farg'ona viloyati,
Toshloq tumanidagi
45-umumta'lim
maktabining
10-sinf o'quvchisi

MANZARA

O'rik barglarini sochadi shamol,
Shoxlari asabiy chayqalar bunda.
Shamol-chi, tinarmi, bo'zargan, behol
Maysalar sochidan tortqilar zumda.

Changni ham uyg'otib rosa o'ynaydi,
Bir shumlik topadi har bir nafasda.
Ozodlik chog'idan jo'shib kuylaydi,
Nahot intilar u tuproq qafasga...

Shahzoda KARIMBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi 12-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



QUVNOQ ONLARIM

Eng shirin damlarim,
Maktab sen bilan,
Eng aziz kunlarim,
Gullar sen bilan.

Hatto-ki sho'xliklar,
Do'stlar, o'rtoqlar,
Shirin xotiralar,
Bari sen bilan.

Yoshligim, sho'xligim,
Kichikintoyligim,
Bilmasdan bunchalar
Tez ulg'ayganim.

Oltin teng bo'lgan,
Quvnoq onlarim,
Bolalik chog'larim,
Bari sen bilan.

Saodatxon ABDULLAYEVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 169-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

MEHRINGIZGA HAVOLA

Tog'larda o'sar lola,
Go'yo nurli shalola.
Lolalarni uzmaslik,
Mehringizga havola.

Qo'ying, ko'kka bo'y cho'zsin,
Bezasin xo'p tog'larni.
Viqor ila yastanib,
Rang kiritsin bog'larni.

Ozodbek NIYOZOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim
maktabi o'quvchilari



SIZGA TA'ZIM

Buyuklarni buyuk qilgan,
Bolalarni suyub kelgan.
Kitoblarni boylik bilgan,
Ustozlarim, sizga ta'zim.

Kitob o'qib erta-yu kech,
Bilim berib tolmaysiz hech.
Ortingizdan qolmaymiz hech,
Ustozlarim, sizga ta'zim.

Gullar to'shay poyingizga,
Borib yo'qlay yoningizga.
Axir ilm bergan bizga,
Ustozlarim, sizga ta'zim.

Bayram bo'lsin har kuningiz,
Yorug' bo'lsin tunlaringiz.
Onam kabi azizdarsiz,
Ustozlarim, sizga ta'zim.


Saida ABIRQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

VATANIM

Oллоhimdan berilgan,
Mo'jizasan, jon yurtim.
Senga bo'lsin bor mehrim,
Dilimdagi hurmatim.

Tillaga alishmayman,
Bir hovuch tuprog'ingni.
Qadrlayman har doim,
Ona Vatan bog'imni.

Zilola RAJABBOYEVA,
O'zbekiston Respublikasi,
G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim
maktabi o'quvchilari



(Davomi)

Boshi o'tgan sonlarda)

– Amir Temur imkoniyatni boy bergan jang.

– Loy jangi.

– Napoleon xato qilgan jang.

– Veterloo.

Shunda bir zum kompyuter jim bo'lib qoldi. Tasvirlar esa tinmay o'tib turardi. Uchalamiz ham ang-rayib qolgan edik. Turg'unning aqli hayron edi:

– Tavba, bu gaplarni, savollarni bizga kim jo'natyapti o'zi?

– Olimjon, – tilga kirdi Doniyor, – e'tibor qilyapsanmi? Bu qaysidir bir odam, sayt yoki profildan kelmayapti. Qara, kelayotgan manbaning hech qanday asosi yo'q. Unda na sayt nomi, na login, na profil yoki blog bor.

– To'g'ri aytasan, bu, menimcha, insoniyat ishorasi emas, zamon va makon orasidagi sarhad yo'lagidan alomat bo'lsa kerak.

– Aslida, eski ilohiy raqam va belgilarni zamonaviy elektron texnologiyalar o'qiy olmaydi-ku.

– Gaping-ku to'g'ri, ammo koinotda Internet oqimi aynan biz aytayotgan sarhad makoniga to'g'ri kelib qolsa, maydonlararo o'tish tuynugi hosil bo'lishi mumkin.

– Demak, biz ular kesishgan nuqtada turgan bo'lishimiz mumkin, – chakkasi terlab ketgan Doniyor vahimaga tushgancha menga qarab qo'ydi.

– Hoy, tag'in sarhadga to'g'ri kelib, o'tmish zamonga qaytib qolmaylik. O'zi nimalar qilyapsanlar?

– Qo'rqmanglar, – ularni yupatdim men, – o'tilgan taqdirda ham men o'tishim mumkin. Chunki unga mening nomim kiritildi va kodlandi.

Bir vaqt kompyuterga signal keldi va qator yozuvchi nomlari chiqdi.

– Kalit izlovchi nomini kirit!

– Olimjon.

– Olamlarni tanla: ertaklar olami, o'tmish olami, o'simliklar olami, hayvonot va jonzotlar olami – barchasi.

– Ertaklar va o'tmish olami.

– Javoblar qabul qilindi. O'n sakkiz ming olam safariga xush kelibsan! Kutib tur!

Men yashin tezligida fikrlay boshladim. Barchasi ayon bo'lgan edi. Urinishlar zoye ketmadi. Men kodni topmoqchi edim va bu yo'lda qandaydir yo'lakka duch keldim. Demak, tilsim shu tuynuk ortidan topiladi. Zudlik bilan Doniyorga hamma gaplarimni aytib tashladim. Chunki vaqt ziq.

– Do'stim, men safarga chiqaman. Hozir g'oyib bo'lsam, cho'chib ketmanglar! Doniyor, hamma aytganimni qil! Xo'pmi?! Uydagilarim sirni bilib, cho'chib ketishmasin! Men, albatta, qaytaman. Turg'un, sen Doniyorning yonida bo'l va aytganlarini qil! Qani, do'stlarim, buyuk ishlar sari olg'a!

Do'stlarimning ko'zlari katta-katta ochilib, peshanalaridan ter chiqib

ketdi. Ayniqsa, Turg'un bechoraning rangida rang qolmagandi. U hozir nima bo'layotganini oxirigacha anglay ham olmayotgandi.

Kompyuterdan oxirgi signal keldi, chamasini monitorda buyruq aks etdi:

– Nur taralgan zahoti ko'zingni yum va shoshmasdan o'n sakkizgacha sana, keyin esa o'n sakkizdan birgacha teskari sana. Shu vaqt oralig'ida ko'zlaringni hatto igna uchiday ochsang va undan ko'zingga nur kirsam, toshga aylanasan!

Bundan hammamiz birdek qaltiray boshladik. Xayolimizni yig'ib

makon sarhadidan o'tib ketdim-ku. Bu joy qaysi zamon, qaysi olam, qaysi mamlakat ekan? Eh, u yoqda do'stlarim qolib ketdi-ku. Uydagilar meni deb xavotirga tushadigan bo'lishdi-da. Ha, mayli, Doniyor, Turg'un bor-ku. Bir yo'lini topib turishar. Eng keraklisi, qaytish uchun ko'prik so'z yodimda.

Shu kabi o'y-xayollar bilan bo'lib, ust-boshimni changlardan qoqib tursam, bir otaxonning ovozi eshitilib qoldi:

– Hoy, bo'talog'im, kimsan?!

Yo Xudoyim, ovoz xuddi amakimniki edi. Xursand bo'lganimdan yig'lab yuboray dedim. Ne ko'z

istagan savoliga javob topishi mumkin. Zero, Yaratgan Egam bandalariga ilm berib, ularni behad mukofotlagan. Bu sen kelgan olam mehribonlar o'lkasi hisoblanadi. Yurtimizning hamma odamlari mehribon va rahmdil. Podshohimizdan tortib, bu elda barcha ilmli, kasb-hunariga mehr qo'ygan. Bu yerning eli faqat tinchlik istaydi. Shu sabab, yurtimiz sardori urushlarga ruju qo'ymagan. O'zga yurtlarni vayron etib, boylik orttirishni o'ziga or deb biladi. Aksincha, qo'shni ellar bilan do'st bo'lib yashaylik, deydi. Ammo necha yillardan beri Bag'ritoshlar diyorining johil shohi yurtimizga ko'z olaytirib kelmoqda. Podshohimiz necha yillardan beri u bilan do'stona ish tutishga harakat qildilar, ammo nafi bo'lmadi. Oxir-oqibat o'rtadagi munosabatlarga putur yetdi. Eshitishimcha, endi u qo'shin to'plab, bizning yurti istilo qilish uchun yo'lga chiqqanmish.

Men bir munkayib qolgan chol bo'lsam, qani yigitlik davrimga qaytsam-u, dushmani boqlab dodini bersam, ammo qo'limdan mana shu suruvni boqishdan o'zga ish kelmaydi.

– Bobo, bu mol-u qo'ylar suruvi kimga tegishli? – so'radim qiziqib.

– Ha, bu suruv saltanatning mulki sanaladi.

– Saltanatingiz ancha obod, cheki-chegarasi yo'q bir makonga o'xsharkan, bobo. Ammo shunday jannatmakon o'lkani yovga berib qo'yish yaxshi emas.

– Bu gaplaringdan aqlli bolaga o'xshaysan, – bobo dasturxon yozib mehmon qilarkan, men bilan qiziq boshladi.

– Bobo, nega xalqni yig'ib, dushmanga qarshi kurashga chiqmayapsizlar?

– Agar dushman bizdan necha barobar ko'p bo'ladigan bo'lsa, kurashsak, xalqimiz qurbon bo'lib, aziz o'lkamiz vayronaga aylinishi mumkin. Bu esa yurtimiz ravnaqini necha yillar ortga surib yuboradi. Rivojlanish to'xtab qoladi, balki birinchi galda, vaqtincha bo'lsa ham muzokara yo'lini tanlash lozimdir, deb fikr qilib turibmiz.

– Bobo, haqiqatan ham el-yurt tinchligini o'ylash oliy fazilat. Biroq muzokara qilganingiz bilan johil odamlar hech qachon o'z so'zida turmaydilar. Maqsadlariga yetishgach, yurtiingizda istagan bezoriligini qilishi, insonlarni esa xo'rlashi mumkin.


– Bu gaplarni qaydan bilasan? – so'radi bobo hayratlanib mendan.

– Buni tarix va ertak kitoblarida o'qiganman.

Bobo gaplarimdan ta'sirlana boshlagandi. Mendan ko'z uzmay so'zlarimni tinglar edi. Balki ichida: «Bu tirrancha bir qarich bo'lgani bilan baloga aqli yetarkan», deya-yotgan bo'lsa, ajab emas.

(Davomini kitob shaklida o'qiyasiz)

Otabek QUVVAT



OLIMJONNING SARGUZASHTLARI YOXUD ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA

(Sarguzasht-fantastik qissa)

olmasimizdan kompyuter monitoridan chaqnoq nur taralib chiqdi va bundan go'yo butun uy, hatto olam yorishib ketgandek bo'ldi. Hammamiz cho'chib ketganimizdan qichqirib, bir-birimizni quchoqlab olganimizcha birdaniga ko'zlarimizni yumdik va buyruqni bajardik...

U yog'ini esa bilmayman. Go'yo tosh qotib uxlab qolgandekman. Quyosh butun vujudimni qizdirib yuborganidan uyqusirab, o'ng yon-boshimga ag'darilsam, ikki shoxli, bo'ynida uzun soqoli bor bahaybat bir oq dev yantoq chaynagancha menga qarab turibdi. O'takam yorilay deb shoshganimcha sanchib o'rnimdan turdim. O'zimga kelib qaragam, oppoq bir echki ma'raganicha kavshanib turibdi.

ERTAKLAR OLAMI: MEHRIBONLAR MAMLAKATIDA

Bu qanday joy bo'ldi. Qayerga kelib qoldim. Asta xotiram joyiga kela boshladi. Shoshma, men sirli kalit tilsimini izlab, zamon va

bilan ko'rayki, qarshimda xuddi amakimga o'xshagan oppoq kiyimli Xizrsifat bir bobo turardi. Soqollari ko'ksiga tushadi. Qo'lida esa tayog'i.

– Assalomu alaykum, bobojon! – deya unga ta'zim qilib, yoniga bordim.

– Vaalaykum assalom, mullo bo'ling! Bu turishingizdan bizning yurt bolasiga o'xshamaysiz! Ammo so'zlashingiz bizning tilga ancha yaqin. Qaysi yurtlardan bo'lasiz? Bu hech kimsa yo'q joyda qayerdan paydo bo'lib qoldingiz?

– Men kelajakdan kelib qoldim, bobo. Ismim Olimjon. Sizniki-chi?

– Mening ismim To'qsonboy. Yoshim ham to'qsonda. Mana shu adirlarda qo'y-u echki boqib yuraman.

– Bu qaysi olam, qaysi yurt, bobo? O'rganish ishimda bir sirli kalit tilsimini izlab, o'tmish yo ertaklar olamiga kirib qoldim, shekilli.

– Ha, bolam, har bir inson o'tmish va ertaklar olamidan, umuman, bu o'n sakkiz ming olam qatidan



TEST

1. Rangsiz, shaffof shishaning siri XIII asrda qayerda aniqlangan?

- A) Venetsiya;
- B) Rossiya;
- D) Xitoy.

2. Velosiped ishlab chiqarilgan yilni bilasizmi?

- A) 1862-yil;
- B) 1887-yil;
- D) 1990-yil.

3. Gamburgerlar qaysi asrda paydo bo'lgan?

- A) XX asr;
- B) XIX asr;
- D) XXI asr.

4. Velosiped so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) Tez yuguruvchilar mashinasi;
- B) Tez haydovchilar mashinasi;
- D) Tez yuruvchilar mashinasi.

5. Karl Dreys nechanchi yil ikki g'ildirakli samokatni yaratgan?

- A) 1819-yil;
- B) 1817-yil;
- D) 1818-yil.

Zuhra NISHONOVA tayyorladi

Bugun sehrli qo'shiq ohangidan erta uyg'ondim. Quloqlarim ostida onamning yoqimli ovozda kuylayotgan allasi yangradi.

Alla bolam alla-yo,
Toychoq bolam uxla-yo,
Orom olgin alla-yo
Uxlab qolgin alla-yo...

Ora-sira uch yoshli ukam ko'zlarini yumish o'rniga «Didik, didikka boraman», deb qo'yar va mit-ti qo'lchalari bilan hovliga ishora qilardi.

Onam uni bag'riga bosgancha uydandan chiqishga hozirlandi. Men ham qiziqib ularning ortidan ergashdim. Uyimizning orqa tarafiga o'tganda ukam «Didik» deya xursand bo'lib baqira boshladi. Qarasam, chindan ham soy bo'yida qizil-qo'ng'ir tusli toychoq bog'langan turardi.

Ukam esa hamon onamning qo'llaridan chiqqudek «Didik, didik», deya chapak chalib kulari. Onamning aytishicha, bir kun avval kimdir otini shu yerga bog'lab ketgan ekan. Otni barchamiz zavq bilan kuzatdik, mehr bilan tomosha qildik. U esa bunga javoban old oyoqlarini



(Hikoya)

UKAMNING SEVIMLI ERTAGI

yerdan ko'tarib kishnardi. Dumini silkitib g'ashiga tegayotgan chivinlarni haydardi.

Endi-endi gapira boshlagan ukam tinimsiz savol berardi:

– Oyi, otning qo'li qani? U nima yeydi? Qorni ham ochgandir-a?

Onam esa yonidagi gullab yotgan yovvoyi bedadan uzib: «Ma, bularni «didik»ka ber», deya ukamga uzatdi. Ko'chadan o'tayotgan tanish, notanish odamlar ham bizga havas bilan qarashar edi.

Biz bolalar esa otning yonida soatlab qolib ketdik. Axir ko'p qavatli uyimiz yonida otning paydo bo'lishi

biz uchun bir mo'jizaday gap. Quyosh naqd tikkaga kelganda uyga qaytdik. Ukam «Uyga kirmayman», deya, rosa xarxasha qildi. Uni ovutish uchun onam kitob javonimizdan «Ertaklar avtobusi» deb nomlangan kitobchani olib, otning rasmini ko'rsatdi. Ukam yana o'sha xursand ovozda «Didik, didik», deya baqira ketdi. Qarasam, kitobchanning muqovasida tasvirlangan poyezd vagonlaridan

birining ichida qad rostlab toychoq rasmi turardi. U xuddi ko'chada ko'rgan toychoq'imizga o'xshardi.

Onam ertagini boshladi. Shu kundan boshlab toychoq haqidagi ertak ukamning sevimli ertagiga aylandi. Har kuni uxlash oldidan «Oyi, bir bor ekanni aytib bering», deb so'rardi. Onam qo'lga kitobni olishi bilan ukam ham o'z tilida «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, uyning orqasida bitta katta «didik» bor ekan», deya o'z ertagini boshlardi.

Ozodbek HASANOV,
Samarqand shahridagi
58-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf
o'quvchisi

pazanda qizga!

Ayni kunlarda baqlajonlar yetilib

pishgan payti. Uni ko'pchilik sevib iste'mol qiladi.

Bugun sizlarga tavsiya qiladigan taomimiz siz va oila a'zolaringizga yoqishi tabiiy, albatta. Agar tayyor bo'lsangiz, unda boshladik!



BAQLAJONLI NONUSHTA

Kerakli masalliqlar: baqlajon 3 dona, kashnich 1 bog', sarimsoq-piyoz 3 dona, anor 1 dona, kungaboqar yog'i 50 gr., tuz ta'bga ko'ra.

Baqlajon yuvib quritiladi va uzunasiga parrak qilib kesiladi. Qizib turgan yog'ga ikki tomoni qovurib olinadi. Kashnich va sarimsoqpiyoz mayda qilib to'g'raladi. Qovurilgan baqlajon bo'laklarini likopchaga solinib, ustiga kashnichli aralashma surtiladi. Anorni tozalab donalari bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!


NARGIZA tayyorladi



RANGLAR JILOSISI



Davron ERGASHEV,
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov
tumanidagi «Yosh ijodkorlar»
klubi rahbari



Nozima ERGASHEVA,
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov
tumanidagi «Yosh ijodkorlar»
klubi a'zosi

Madina FURQATOVA,
Samarqand viloyati, Jomboy
tumanidagi 40-DIUM
o'quvchisi



MAKTABGA ILK QADAM

Toshkent shahri Reyngold Glier nomidagi RIMMga 3-4-5-sentyabr kunlari 2020-yil uchun kirish imtihoni o'tkazilgan edi. Ayni damda esa 2020-2021-yangi o'quv yili 14-sentyabrdan karantin qoidalariga amal qilgan holda umumta'lim darslar onlayn, maxsus fanlarni esa haftada ikki marotaba borib imtihonlardan o'tgan

iqtidorli o'quvchilar ta'lim olmoqda. Solfedjio va Ritmika Xor va cholg'u maxsus fanlaridan ham masofaviy ta'lim yo'lga qo'yilgan. Yangi o'quv yilida maktabga ilk qadam qo'ygan iqtidorli o'quvchilardan Kumushbibi Bahodirova, Jahongir Bekmirzayev, Asalxon Karimova, Fayzullo Faxriddinovlar onlayn darsliklarni ham kuni bilan faol

bajarishmoqda. Ilm olishning eng afzal davri bu insonning yoshlik chog'idir. Yoshlarni kelajak sari tayyorlab bo'lishi nafaqat nazariy bilimlar, balki ijodiy mashg'ulotlarda faol bo'lishi kelajak uchun juda muhimdir.

AXTAMQULI



Yasmina yangi maktabdagi yangi ustoz va sinfdoshlari bilan tanishdi. U sinfdagi o'quvchilar bilan birinchi kundanoq yaqin bo'lib ketdi. Ustozlarini aytmaysizmi, uni hamma yaxshi ko'rib qoldi, chunki u juda ham aqlli qiz. Faqat bir kishi uni xushlamadi. Bu Zarina edi. U doim yangi kelgan o'quvchilarni yoqtirmasdi. Ammo Yasmina u bilan do'st bo'lishni istab qoldi. Uning yoniga borib:

– Salom, mening ismim Yasmina, seniki-chi? – deb so'radi, u esa:

– Men sen bilan gaplashishni ham istamayman, – deb unga jahl qildi.

Yasmina uning bu ishidan qattiq xafa bo'ldi, ammo u bilan do'st bo'lishdan voz kechmadi. Oradan ancha vaqt o'tsa-da, shu holat qayta-qayta takrorlanaverdi. Yasmina esa Zarina bilan do'stlashish fikridan qaytmadi.

Bir kuni Zarina maktabga kelolmadi, chunki u o'sha kuni qattiq betob bo'lib qolgandi. Buni bilmagan Yasmina negadir xavotir



IKKI DUGONA

(Hikoya)

ola boshladi, darsdan so'ng uning uyiga o'zi pishirgan issiqqina, mazali pirogni olib bordi va eshikni taqillatib ichkariga kirdi, darvoza

ochiq edi. U yo'tal eshitilayotgan tomonga boraverdi va xonada betob yotgan Zarinani ko'rdi. Tezda issiq choy olib kelib, isit-

ma tushiruvchi dori berdi. Zarina dugonasining bu ishidan xursand bo'ldi. U ketgach, o'ylab qoldi.

– Mendan shuncha yil birga o'qigan sinfdoshlarim xabar olmadi. Kechagina kelgan Yasmina mendan xavotir olib kelibdi. Demak, mening haqiqiy dugonam bu Yasmina ekan. Men undan tezroq uzr so'rashim kerak...

Ertasi kuni u maktabga borib Yasmina bilan gaplashdi.

– Yasmina, men sendan bo'lib o'tgan ishlar uchun uzr so'ramoqchiman, men haqiqatan ham o'z aybimni tushunib yetdim, sen bilan qalin dugona bo'lmoqchiman, – deb ko'ziga yosh oldi.

Shunda Yasmina ham uning gaplaridan ta'sirlanib, u bilan do'st bo'lishga qaror qildi.

– Men ham sen bilan do'st bo'lishni istayman, – deb javob berdi.

Shu kundan boshlab Zarina va Yasmina yaqin va eng asosiysi, bir-birlariga kerakli dugona bo'lib qolishdi.

Diyora O'TKUROVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

Tong yulduzi
Vatan yagonadir, Vatan ulldir!

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Muhammadsharif
FAYZULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. www.tongyulduzi.uz e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz telegram: t.me/tongyulduz Adadi - 1742 Buyurtma - V 4336

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08